

O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING USTUVOR YO'NALISHLARI BO'YICHA TADQIQOTLAR

IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiya
MATEARIALLARI



1-JILD | 4-SON

2025-YIL

O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING USTUVOR YO‘NALISHLARI BO‘YICHA TADQIQOTLAR

**IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, dekabr

TOSHKENT-2025

ISBN-978-9910-8337-5-5

O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 1-jild, 4-son (dekabr, 2025-yil). – 55 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 9-dekabr

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar" mavzusidagi IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, strategiya, ustuvor yo'nalishlar, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, texnologik taraqqiyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Rakhimov Oktyabr, Tulayeva Soxiba

KASBIY TAVAKKALCHILIKNI KAMAYTIRISHDA XAVFLARNI TASNIFINING TUTGAN O'RNI 4-7

Safoyev Nuriddin

KVANT NUQTALI TEXNOLOGIYADA QUVVAT TAHLILI HUJUMLARI VA KRIPTOGRAFIK SXEMALARNI LOYIHALASH 8-11

TARIX FANLARI

Begaliyeva Aysha

ISLOHOTLARDAN KEYINGI DAVRDA ROSSIYA IMPERIYASI TEMIR YO'L TRANSPORT TIZIMINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI 12-14

IQTISODIYOT FANLARI

Murtazayev Isabek

ZARAFSHON MINTAQASIDA BUXORO VILOYATINING HUDUDIY-IQTISODIY SALOHİYATI VA TARMOQLARARO IXTISOSLASHUVI 15-18

FALSAFA FANLARI

Maxmudov Izzatillo

KORRUPSIYAGA QARSHI SIYOSAT VA IJTIMOİY HIMOYA ISLOHOTLARI O'ZARO BOG'LIQLIGI 19-22

FILOLOGIYA FANLARI

Saydullayeva Aziza

"YALMOG'IZ KAMPIR" ERTAGI: KOMPOZITSIYA, KONFLIKT VA YOVUZ QAHRAMON TAHLILI 23-25

Xamrakulova Farangiz

TEMPORAL METAFORALARINING AQLIY VA MADANIY IDROKKA TA'SIRI 26-28

YURIDIK FANLAR

Normurodova Behro'za

RAQAMLI DALILLARNI TO'PLASHDA XALQARO HAMKORLIK VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR INTEGRATSIYASI 29-36

PEDAGOGIKA FANLARI

Xaqiqatbekov Zafarbek

OLIY TA'LIM TIZIMIDA TALABALAR SALOMATLIGINI QO'LLAB-QUVVATLASHDA UNIVERSITET RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH 37-42

Rustamova Shoxista

TALABALAR TADQIQOT ISHLARINI XALQARO ILMIY PLATFORMALARDA INTEGRATSIYALASH: IMKONIYATLAR, MUAMMOLAR VA INNOVATSION YONDASHUVLAR 43-48

Tagayev Odil

VIRTUAL VA KENGAYTIRILGAN HAQIQAT (VR/AR) TEXNOLOGIYALARI DIDAKTIK IMKONIYATLARI 49-51

Xakimova Xosiyat

BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARNING NUTQ KO'NIKMALARINI BAHOLASHNING DIAGNOSTIK MODELI 52-54

FILOLOGIYA FANLARI

“YALMOG'IZ KAMPIR” ERTAGI: KOMPOZITSIYA, KONFLIKT VA YOVUZ QAHRAMON TAHLILI

Saydullayeva Aziza Ubaydullayevna

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqola o'zbek xalq ertagi “Yalmog'iz kampir” asosida yozilgan bo'lib, ertakdagi yovuz qahramonning arxetipik, poetik, funksional va psixologik tahlilini amalga oshiradi. Tadqiqotda Proppning morfologik modeli, qiyosiy tipologik tahlil usullari qo'llanildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, yalmog'iz kampir obrazi qahramonning yetilish jarayonidagi sinovchi kuch sifatida xizmat qiladi, dramatik va poetik konfliktlarni shakllantiradi, axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarni ifodalaydi. Maqola o'zbek sehrli ertaklaridagi yovuz qahramonlar tizimining arxaiik va barqarorligini, shuningdek, obrazning psixologik va poetik qatlamlarini yoritadi.

Kalit so'zlar: yalmog'iz kampir, o'zbek xalq ertaklari, yovuz qahramon, arxetip, poetik tahlil; sehrli ertak, konflikt.

THE TALE OF “YALMOGIZ KAMPIR”: COMPOSITION, CONFLICT, AND THE ANALYSIS OF THE EVIL CHARACTER

Saydullayeva Aziza Ubaydullayevna

A basic doctoral student of the Alisher Navoi TashDO'TAU

Annotation. This article is based on the Uzbek folk tale “Yalmog'iz Kampir” and provides an archetypal, poetic, functional, and psychological analysis of the evil character in the story. The study employs Propp's morphological model and comparative typological methods. The findings indicate that the Yalmog'iz Kampir functions as a testing force in the hero's maturation process, shapes dramatic and poetic conflicts, and conveys moral and social values. The article highlights the archaic and stable nature of the system of evil characters in Uzbek magic tales, as well as the psychological and poetic layers of this character.

Key words: yalmogiz Kampir, Uzbek folk tales, evil character, archetype, poetic analysis, magic tale, conflict.

Qadimdan jahon sivilizatsiyasiga o'z hissasini qo'shib kelgan o'zbek xalqi boy madaniy merosga ega bo'lib, bu merosning eng muhim qatlamlaridan biri xalq og'zaki ijodidir. Asrlar davomida og'izdan-og'izga o'tib takomillashgan bu ijod namunalari orasida ertaklar alohida ahamiyat kasb etadi. Ertaklar xalqning estetik qarashlari, badiiy tafakkuri, axloqiy qarashlari, orzu-umidlari va dunyoqarashini mujassamlashtirgan holda, milliy ma'naviyatning eng qadimiy qatlamini tashkil etadi.

Xalq ertaklari – og'zaki ijodning eng qadimiy va keng tarqalgan janrlaridan biri bo'lib, ular hayotiy voqealarni badiiy talqin etish, xalq fantaziyasini ifodalash hamda axloqiy tarbiya berish vazifasini bajaradi. Ertaklarda real hayot tasvirlari bilan birga mo'jizaviy voqealar, g'ayritabiiy kuchlar, fantastik tasavvurlar uyg'unlikda namoyon bo'ladi. Shu jihati bilan ertaklar bolalar uchun qiziqarli, kattalar uchun esa ma'naviy va tarbiyaviy ahamiyatga ega manba bo'lib kelmoqda.

Janr sifatida ertaklar xalqning tarixiy tajribasi, e'tiqod va udumlari, ezgulik va yovuzlik, mehnat, adolat, jasorat singari umuminsoniy tushunchalar bilan chambarchas bog'liqdir. Ertaklardagi obrazlar orqali xalq o'z intilishlari, ideallari va ijtimoiy adolat haqidagi tasavvurlarini badiiy shaklda ifoda etgan.

O'zbek xalq ertaklari mazmun va shakl jihatidan serqatlam bo'lib, ularning tarkibida sehrli ertaklar, hayvonlar haqidagi ertaklar hamda axloqiy-ma'rifiy mazmundagi hayotiy

ertaklar mavjud. Ayniqsa, sehrli ertaklar xalqning afsonaviy tasavvur olamini, g'ayritabiiy kuchlarga munosabatini va ijtimoiy orzularini yoritishda alohida o'rin tutadi. Ularning sayqallanishida ertakchilarning badiiy mahorati, nutq boyligi, obraz yaratish tajribasi katta rol o'ynagan. Aynan og'zaki ijro — ertaklarning folklor janri sifatidagi asosiy belgisi hisoblanadi.

Bugungi kunda o'zbek folklorshunoslari tomonidan yozib olingan va nashr qilingan ertaklar nafaqat milliy badiiy meros sifatida, balki xalqning ijtimoiy-ma'naviy holatini, estetik didi va axloqiy qarashlarini o'rganishda ham muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qilmoqda. Shu sababli ertaklarni faqat adabiy matn sifatida emas, balki ularning syujet qurilishi, motivlar tizimi, obrazlar poetikasi, funksional hamda genezistik asoslari, tarixiy qatlamlari va tarqalish xususiyatlarini chuqur o'rganish zamonaviy folklorshunoslikning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri sanaladi.

O'zbek xalq ertaklari — og'zaki ijodning eng qadimiy qatlamlaridan biri bo'lib, unda arxetipik obrazlar, qadimiy marosim va mifologik motivlar mujassamlangan. Xususan, sehrli ertaklar fantastikaga asoslanadi. Syujet tuzilishi tilsim, sehr-jodu, xayoliy voqea va hodisalardan tashkil topib, turli xil hajmi, badiiyati, murakkab motivlari bilan ajtalib turadi.

“Yalmog'iz kampir”[1] ertagi bu qatlamning muhim namunasi bo'lib, yovuz qahramon timsoli orqali qahramonning yetilish jarayonini, sinovlarini va dramatik konfliktini ochib beradi.

Yalmog'iz kampir obrazi o'zbek ertaklarida chaqiriq beruvchi, yo'lni to'suvchi va qahramonni sinovdan o'tkazuvchi yovuz kuch sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu maqola maqsadi — ertakning kompozitsiyasi, konflikt dinamikasi, yovuz qahramonning psixologik portreti va poetik modellarini ilmiy asosda tahlil qilishdir.

O'zbek folklorining keng tarqalgan mifologik personajlaridan biri yalmog'iz obrazining genetik asoslari esa matriarxat davri mifologiyasi bilan bevosita bog'liqligini K.Imomov o'z tadqiqotlarida ko'rsatib o'tadi. Folklorshunos olim M.Afzalov[2], G'Jalolov[3] tadqiqotlarida ham bu masalaga e'tibor qaratilganligini kuzatish mumkin.

“Yalmog'iz kampir” ertagi uch bosqichli konflikt modeliga ega:

1. Boshlang'ich to'qnashuv. Bola oltin soqqasini qaytarish uchun yaylovga boradi va kampir bilan yuzma-yuz keladi. Bu Proppning “birinchi zarar yetishi” va “uydan chiqish” funksiyalariga mos keladi[3].

2. Quvish va sinov bosqichi. Bola bir nechta hayvonlarni almashtirib, kampirdan qochadi (toy → eshak → ot → tuya → buzoq). Har bir hayvon yordamchi kuch sifatida qahramonga yordam beradi. Kampir esa doimiy yovuz kuch sifatida sinov yaratadi.

3. G'alaba va yechim. Tozilar orqali yalmog'iz kampirning daryoda o'ldirilishi yovuzlikning jilovlanishini bildiradi. “...Oradan ancha vaqt o'tgandan keyin, suvning betiga yiring chiqibdi. Bola yiringni ko'rib yig'layveribdi. Darrov suvning betiga qon chiqib, daryoning hamma suvi qip-qizil bo'lib ketibdi. Bola quvonib tursa, tozisi yalmog'iz kampirning ikki oyog'idan sudrab chiqib qolibdi. Bolaning dushmani o'lib, quvonib ravotiga qaytibdi. Bu dramatik va axloqiy yakun bo'lib, qahramonning yetilish bosqichini yakunlaydi.

4. Yovuz qahramonning psixologik portreti. Yalmog'iz kampir quyidagi psixologik xususiyatlarga ega:

a) aldov va hiyla – “O'zim o'lib borayapman, ololmayman” kabi yolg'on so'zlar orqali qahramonni chalg'itadi. “O'zim o'lib borayotibman, senga soqqani olib berishga holim

kelmaydi, mana, o'zing ola qol, - deb soqqani beriroqqa qo'yibdi. Bola toyini hezlab kelib oltin soqqani olib qochibdi. Yalmog'iz kampir dadil o'rnidan turib bola orqasidan quvib ketibdi..."

b) ichki agressiya va kuchga chanqoqlik – bola ortidan doimiy quvish motivi.

c) empatiya yo'qligi – boshqalarning qo'rquv va ehtiyojini inobatga olmaydi.

Qiyosiy tahlil

Element	O'zbek ertaklari	Turk ertaklari
Obraz nomi	Yalmog'iz kampir	Cadi, Koca kari
Funksiya	sinov beruvchi, yutuvchi	aldovchi, yo'ldan uruvchi
Estetik model	dahshatli, sirli	hiylakor, sehrli
Qahramonga ta'sir	jismoniy xavf	psixologik-hiyla asosida xavf

Yalmog'iz kampir obrazining ilmiy tahlili shuni ko'rsatadiki: u arxaik demonologik ildizlarga ega, qadimiy ayol demonlar bilan bog'liq, qahramonning yetilishida raqib kuch va sinovchi rolini bajaradi, konflikt orqali ertak axloqiy, dramatik va poetik o'sishni ta'minlaydi.

"Yalmog'iz kampir" ertagi yovuz qahramonlar tizimining markaziy timsoli sifatida quyidagilarni ifodalaydi: konflikt yaratish – qahramonni sinovga soladi, dramatik taranglikni oshiradi, poetik badiiylik – dahshat va sirli atmosferani hosil qiladi, axloqiy va ma'naviy o'sish – qahramon halollik, matonat va aql orqali g'alaba qozonadi, psixologik murakkablik – yovuz qahramon ko'p qirrali, manipulyativ va egoistik motivlarga ega.

Shunday qilib, yalmog'iz kampir obrazi o'zbek xalq ertaklarida faqat yovuzlik timsoli emas, balki qahramonning o'sish jarayonini rag'batlantiruvchi, konflikt va dramatik kuch manbayi sifatida xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Oltin tarvuz. O'zbek xalq ertaklari. Toshkent: O'zbekiston, 1991, 46-48-betlar.
2. Афзалов М. Ўзбек халқ эртаклари хақида. Тошкент, 1964.
3. Жалолов Ф. Ўзбек халқ эртаклари поэтикаси. Тошкент, 1976.
4. Пропп В.Я. Жанровый состав русского фольклора. В кн. Фольклор и действительность. М., 1976. Имомов К. Ўзбек халқ насри поэтикаси. - Тошкент: Фан, 2008.

O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING USTUVOR YO‘NALISHLARI BO‘YICHA TADQIQOTLAR

IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, dekabr

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha tadqiqotlar. IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. 1-jild, 4-son (dekabr, 2025-yil). – 55 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 9-dekabr

ISBN-978-9910-8337-5-5

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.